

**MILLIY GWARDIYA BO‘LAJAK OFITSERLARINING MAFKURAVIY
KOMPETENTLILIGINI OSHIRISH.**

Urolov Umid Xolmurotovich

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil tadqiqotchisi
podpolkovnik*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh bo‘lajak ofitserlar tomonidan e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ba‘zi omillar hamda ularning mafkuraviy kompetentliligini oshirish, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash borasida yurtimizda olib borilayotgan islohatlar hamda, harbiy faoliyat o‘zida jamlagan xususiyatlar borasida ayrim mulohazalar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘z: *Ta‘lim, tarbiya, kompetentlik, ma‘naviyat, vatanparvarlik, kadr, harbiy xizmat, malaka, ruhiy pedagogika.*

**ПОВЫШЕНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКИЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
ОФИЦЕРОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ**

Аннотация: *В данной статье приведены некоторые факторы, на которые следует обратить внимание молодым будущим офицерам , а также проводимые в нашей стране реформы по повышению их идеологических компетентности, укреплению знаний и навыков, а также некоторые соображения по особенностям военной деятельности.*

Ключевое слово: *образование, воспитание, компетентность, мораль, патриотизм, кадры, военная служба, квалификация, духовная педагогика.*

**INCREASING THE IDEOLOGY COMPETENCE OF FUTURE OFFICERS OF THE
NATIONAL GUARD**

Annotation: *in this article, some factors should be noted by young future officers , as well as some considerations regarding reforms carried out in our country to improve their spiritual competence, strengthening their knowledge and skills, as well as features that are concentrated in military activities.*

Keyword: *education, upbringing, competence, spirituality, patriotism, cadre, military service, qualification, spiritual pedagogy.*

Hozirgi kunga kelib davlatimizda bo‘layotgan tub islohotlar ta‘lim sohasini ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Bunga birgina misol sifatida Prezidentimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qaroriga asosan (PQ–5077-son, 15.04.2021 y.) Milliy gvardiya

shu o'rinda boshqa davlat organlariga yetuk malakali professional kadrlar yetkazib berish hamda kadrlarni o'qitish, ularning ta'limi shu bilan bir qatorda tarbiyasiga ham e'tibor qaratilmoqda. Universitetda mavjud qator kafedralar aynan ma'naviyat, ta'lim, tarbiya hamda vatanparvarlikni kursant tinglovchilarda shakllantirish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirib, ma'naviy tadbirlar va musobaqalar hamda uchrashuvlar tashkillashtirib kelmoqdalar. Kasbiy madaniyatini oshirish yo'lida mavjud manbalarni o'rganish va dastlabki tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish mazkur jarayonga madaniy-tarixiy yondashuvni qaror toptirish samarali ekanligini ko'rsatdi. Madaniy-tarixiy va integrativ yondashuv keng qamrovli harbiy faoliyatni tadqiq etishda harbiy xizmatchilarning shaxs ontogenezi o'rganish, shuningdek, harbiy-pedagogik jarayonning tashkiliy, g'oyaviy va uslubiy asoslarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Milliy gvardiya safida xizmat qilish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan yosh ofitser kadrlar kasbiy madaniyatini oshirish, umuman, Respublika Qurolli Kuchlari tizimini takomillashtirishda ommaviy axborot vositalarining ham roli katta. Shu sababli ommaviy axborot vositalari sahifalarida Qurolli Kuchlar tizimida erishilayotgan yutuqlar, sohada hal etilishi zarur bo'lgan masalalar, shu jumladan, yosh ofitserlar faoliyatlarini keng yoritish lozim. Zero, jamoatchilikning o'z faoliyatlariga nisbatan befarq emasligini anglash harbiy xizmatchilarni ijodiy izlanishga, erishilgan yutuqlarning muhimligi hamda ularning salmoqdorligini anglashga turtki bo'ladi.

Madaniy-tarixiy yondashuvga tayangan holda me'yoriy hujjatlarni o'rganish, maxsus harbiy va harbiy-pedagogik adabiyotlarning tahlili harbiy faoliyatni tashkil etishda quyidagi jihatlarning ustuvor o'rin tutishini ko'rsatdi:

- har bir harbiy xizmatchining o'ziga xos individual sifatlarga egaligi;
- shaxsiy tarkibning muayyan xizmat vazifalarni bajarishga mas'ulligi;
- harbiy xizmat maqsad va vazifalarining harbiy xizmatchiga beriladigan buyruq mazmuni aks etishi;
- xizmat vazifalarini bajarishda zarur axborotlar bilan ta'minlanish, yetarli darajada nazariy bilim va amaliy malakaga ega bo'lishi;
- kommunikatsiya vositalaridan samarali, maqsadga muvofiq va o'rinli foydalana olish.

Madaniy tarbiyaning ijtimoiy-hissiy jihatlari (vatanparvarlik, atrofdagilarga ijobiy munosabat, o'rtoqlik tuyg'ulariga ega bo'lish) kuchli ta'sirga ega. Yosh ofitserlarni harbiy faoliyatga tayyorlash va qayta tayyorlash ijtimoiy maqsad, vazifalar hamda harbiy xizmatchi shaxsiga qo'yiladigan talablarga qat'iy amal qilish yosh ofitserlar tomonidan yuqori kompetentlikni talab etadi.

Ijtimoiy so'rovlar, hujjatlarni o'rganish, nazariy-qiyosiy tahlil, suhbat, intervyu va pedagogik kuzatish metodlari yordamida harbiy tizimda yosh ofitserlar kasbiy madaniyatini ta'minlashga bir qator omillar samarali ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ular quyidagilardan iborat:

- harbiy jamoaning ma'naviy-ruhiy holati;

- harbiy mehnatga to'lanadigan haq;
- mehnat shart-sharoitlari;
- harbiy jamoaning boshqaruv usuli;
- harbiy xizmat pog'onasida o'sish shart-sharoiti;
- harbiy tizim doirasida ijtimoiy ta'minlanganlik.

Mazmuniga ko'ra, harbiy faoliyat o'zida quyidagi xususiyatlarni aks ettiradi:

1. G'oyaviylik yosh ofitserlar kasbiy faoliyatining yo'naltirilganligi bo'lib, harbiy faoliyat mazmunini belgilab beradi. Harbiy faoliyat mazmunini shakllantirishda milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi tamoyillari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar harbiy faoliyat asosini tashkil etadi. Vatan himoyasiga tayyorlik, vatanparvarlik hissiga egalik, xizmat burchlarini sitqidildan ado etish, g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy hamda ruhiy-irodaviy sifatlarni o'zlashtira olish kabi jihatlar yosh ofitserlar faoliyatining ma'naviy asoslarini tashkil etadi. Harbiy xizmatchilarning tafakkur, dunyoqarash hamda umumiy madaniyatlari harbiy faoliyatning samarasi va ijobiy natijasini kafolatlaydi. Ma'naviy-axloqiy sifatlari va kasbiy bilimlarga egalik yosh ofitserlar hayoti va faoliyatida yetakchi o'rin tutuvchi qadriyatlarni belgilab beradi, shuningdek, ijtimoiy burchni bajarish, harbiy xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni tarkib toptiradi. Eng muhimi, yosh ofitserlar harbiy faoliyatning ijtimoiy-milliy ahamiyatini to'g'ri anglaydilar va ularda kelajakka ishonch yuzaga keladi.

3. Kasbiy xususiyat muhim fenomen hisoblanib, harbiy xizmatchilarning mavjud talablarga rioya etishlari hamda o'z xizmat vazifalarini bajarishlarida namoyon bo'ladi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga nisbatan yondashuvlari ularning shaxsiy munosabatlarinigina emas, balki harbiy jamoaning umumiy munosabatlarini ham ifodalaydi. Harbiylik faoliyatining kasbiy xususiyatlari jamiyat a'zolarida harbiy xizmat, harbiy burch va Respublika Qurolli Kuchlar tizimiga nisbatan munosabatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

4. Huquqiy-me'yoriy jihat kasbiy faoliyatning ma'lum huquqiy me'yorlar harbiy xizmatchilarning huquqiy manfaatlarini himoya qiladi, bu esa o'z navbatida faoliyatni samarali tashkil etishga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning boshqaruv, hamkasblar bilan munosabatni tashkil etish hamda harbiy texnika va qurol-yaroqlardan foydalanishga mas'uliyatli yondashish, javobgarlikni his etishga yordam beradi.

5. Ruhiy-pedagogik jihat harbiy xizmatchilarning umumiy tayyorgarliklari - ma'naviy- axloqiy sifatlarga egaliklari, huquqiy savodxonlik va kasbiy tayyorgarlik darajasi, umuman olganda, armiya shaxsiy tarkibining jangovar shayligi bilan bog'liq. Har bir harbiy xizmatchining dunyoqarashi, g'oyaviy e'tiqodi, vatanparvarlik tuyg'usiga egaligi va o'z kasbiga sodiqligi harbiy jamoalar faoliyatini belgilashda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yosh ofitserlarning ruhiy kamoloti harbiy sirni saqlash, xizmat ma'lumotlarining maxfiylikni anglashda yanada yaqqol aks etadi.

Yosh ofitserlarning harbiy-kasbiy talabnomasini tuzishda harbiylik faoliyatining mazmunigina emas, balki ularning harbiy xizmatni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlari,

zimmalariga yuklangan vazifalar va ularni bajarishga qo'yiluvchi talablar inobatga olinishi zarur.

Harbiy kadrlar bo'lgan yosh ofitserlarni kasbiy nuqtai nazardan tayyorlash va qayta tayyorlashda ularning gnostik, pertseptiv hamda ijtimoiy-kommunikativ malaka, shuningdek, kasbiy madaniyat ko'nikmalari va mahoratiga egaliklariga alohida e'tibor qaratish lozim. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish jarayonida harbiy xizmatchilarning shaxsi va imkoniyatlarini o'rganish, shuningdek, kasbiy faoliyatlarini bevosita kuzatish asosida ishlab chiqilgan va ularning kasbiy madaniyatini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda harbiy xizmatchilarning gnostik, pertseptiv hamda ijtimoiy-kommunikativ malaka, shuningdek, kasbiy faoliyat ko'nikmalari va mahoratiga ega bo'lishlarini ta'minlovchi jihatlarning inobatga olinishiga e'tibor qaratildi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni.
2. Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda sharq mutafakkirlarining o'рни. //Science and innovation, international scientific journal, Volume 1, ISSUE 6, 2022. ISSN 2181-3337.
3. Mavlonov F.F. Technologies for the development of professional culture in the formation of patriotic competences of military servants // International Journal of Pedagogics, Volume 2, Issue 12, 2022. P. 57-66.
4. Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy pedagogik asoslari. //Xalq ta'limi - Toshkent, 2022. № 5 B.35-40.
5. Wikipedia.uz